

INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

FEBRUARY 7

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

ALISHER NAVOIY ASARLARINI TARJIMA QILISHDAGI YUTUQ VA KAMCHILIKLAR

Abdurahmonova Muslina Fazliddin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Mumtoz adabiyotimizning yirik vakili, mutafakkir va "g'azal mulkining sultoni" deya e'tirof etilgan shoir Alisher Navoiy besh asrdan beri butun dunyoni o'z asarlari bilan maftun etib kelmoqda. Nafaqat O'rta Osiyo, balki Yevropaning qator mamlakatlarida ham ijodi o'rganib kelinayotgan shoirning asarları turli shaxslar tomonidan xorijiy tillarga o'girilmoqda. So'nggi yillarda Navoiyshunoslikda badiiy tarjima sohasi ommalashib, uning asarları butun dunyodagi mumtoz adabiyot ixlosmandlari qo'lllariga yetkazilmoqda.

Maqolada Alisher Navoiy qalamiga mansub bo'lган bir necha g'azallarning ingliz tilidagi namunalari tahlil qilingan bo'lib, xorijiy tillardagi ma'no go'zalliklari sharhlab berilgan. Bundan tashqari, hozirgi kunda badiiy tarjima bilan shug'ullanuvchilar duch kelayotgan muammolar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mahmud G'aznaviy, Shoh Ali bin Abdul Ali Nishopuriy, Alfred Kurella, "Majolis un-nafois", "Farhod va Shirin", kulliyot, "G'aroyib us-sig'ar", Jomi Jam, Hizr, badiiy tarjima.

Abstract: Alisher Navoi, a great representative of our classic literature, a thinker and a poet recognized as the "sultan of ghazal property", has been charming the whole world with his works for five centuries. The works of the poet, whose work is being studied not only in Central Asia, but also in a number of European countries, are being translated into foreign languages by various people. In recent years, the field of literary translation has become popular in Navoi studies, and his works are being delivered to the hands of lovers of classic literature all over the world.

The article analyzes several examples of ghazals written by Alisher Navoi in English, and comments on the beauty of meaning in foreign languages. In addition, the problems faced by those engaged in literary translation are mentioned.

Keywords: Mahmud Ghaznavi, Shoh Ali bin Abdul Ali Nishopuri, Alfred Kurella, "Majolis un-nafois", "Farhad and Shirin", kulliyot, "G'aroyib us-sig'ar" ("Wonders of Childhood), Jamshid's goblet, Hizr, literary translation.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasasi, milliy adabiyotimizni dunyoga mashhur etgan buyuk mutafakkir hamda davlat arboblaridan biri – bu Alisher Navoiydir. Buyuk Temuriylar sulolasining so'nggi humkdori Husayn Boyqaro saroyida davlat rivoji uchun o'zining ulkan hissasini qo'shgan shoir davlat ishlari bilan birgalikda badiiy ijodni ham olib brogan hamda zamonasining eng muvaffaqiyatli asarlarini yaratgan. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha eng ko'p so'z zaxirasiga ega muallifi, deya e'tirof etilgan Navoiy o'z asarlarida yigirma olti ming o'ttiz beshta so'zdan foydalanib, go'zal turkiy asarlar yaratgan. Nafaqat O'rta Osiyo, balki dunyoning boshqa mamlakatlarida ham asarları qo'ldan-qo'lga o'tib kelayotgan bobokalonimiz ijodi kundan kunga barchanining e'tiborini o'ziga qaratmoqda.

Ma'lumki, hech bir millat adabiyoti boshqalarnikidan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Ularning bir-biriga ta'siri orqali har ikkisi yanada boyib, yuksalib boradi. Ayni shu jihatlarni hisobga olgan holda, bugungi kunda har bir xalqning adabiy namunalari o'zga tillarga tarjima qilinib, kitobxonlarga yetkazilmoqda hamda bu orqali adabiyot shaydolari xorijiy mamalakatning yuksak namunalaridan bilvosita bahramand bo'lmoqdalar. Hozirda g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodini o'rganish va tahlil etishga bo'lgan qiziqish ortib borayotganligi sababli shoir asarları dunyoning turli tillariga tarjima etilib, omma e'tiboriga

INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

FEBRUARY 7

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

taqdim etilmoqda. Tarixga nazar tashlansa, Navoiy asarlari XV asrdayoq turli tillarga tarjima qilingan, Jumladan, Mahmud G'aznaviy "Majolis un-nafois" tazkirasini birinchi bor fors-tojik tiliga o'girgan. Bundan tashqari, oradan yarim asr o'tgach, Shoh Ali bin Abdul Ali Nishopuriy tomonidan xuddi shu asar yana bir marta fors-tojik tiliga tarjima qilingan. Zamonaivy davrda esa Navoiy asarlariga ilk marotaba fransuz olimlari qiziqish bildirilgan bo'lib, ushbu tilga tarjima qilingan. Turk adabiyoti tarjimonligi rivojlangani sari dunyoning turli nuqtasidagi olimlar ham Navoiy asarlarini mohirlik bilan o'z ona tillariga o'gira boshladilar. Geramaniyaning Berlin, Myunxen va Leypsig universitetlarida turkologiya bo'limlari (XIX-XX asr) ochilishi munosabati bilan turk dunyosi adabiyoti namunalarini nemis tiliga o'girish ishlari yanada ommalashdi. M.Xartman, A.Kayzer, G.Flyugel, T.Benfey, X.Vamberi, D.Shuls, M.Gets, T.Mensel, X.Ritter, A.Kurella kabi tadqiqotchilar buyuk shoirning ijod namunalarini nemis tiliga mahorat bilan tarjima qildilar. Manbalarning guvohlik berishicha, 1946-yilda Alfred Kurella tomonidan "Farhod va Shirin" dostonining XVII bobi tarjimasi "Neue Welt" jurnalida e'lon qilingan.

Yuqorida keltrilgan ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, Alisher Navoiy asarlari, O'zbekiston yoki O'rta Osiyoda emas, balki Yevropaning yirik davlatlarida ham tadqiq etilib, turli asarlarning tarjimalari kitobxonlarga havola etilmoqda. Ammo mumtoz adabiyot namunalarini tarjima qilish, biz so'zning ayni tildagi muqobilini topish ijodkordan katta badiiy hamda ilmiy mahorat talab etadi. Boisi, tarjima qilish jarayonida noto'g'ri qo'llangan har bir so'z asarning mazmuniga ta'sir ko'rsatib, uning badiiy jozibasi yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Misol tariqasida, "Jahon adabiyoti" jurnalida Alisher Navoiyning "Vah, necha jismimni..." deb boshlanuvchi g'azalining inglizcha tarjimasi berilgan. Ma'lumki, ushbu g'azal ijodkorning "Xazoyin ul-maoni" kulliyoti birinchi devoni "G'aroyib us-sig'ar" ga kiritilgan. Mazkur g'azal ingliz tiliga "Wow.....separation" deya o'girilgan. Vah so'zi Navoiy asarlarida ko'proq "oh, o'kinch, tashvish, afsus, ajab, ajabo" ma'nolarida keladi va g'azalda ham aynan "e voh, attang, afsuslanish" ma'nolarini ifodalab kelmoqda. Muqobil variant sifatida berilgan "wow" so'zi "qoyil qolish , hayratlanish" ma'nolarini o'zida mujassam etadi. Mohiyatan olib qaraganda bu so'zni ham qo'llashga mumkin, lekin undov so'zlarning ishlatilishidagi ma'no nozikliklari nuqtayi nazaridan, bu joyda "ach" variantini berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ammo g'azalning rus tilidagi tarjimasida ushbu undov so'z "ax" shaklida berilgan hamda g'azal ma'nosini to'liq oolib berishda katta rol o'ynagan.[1] Bundan tashqari Navoiyning yana bir bayti quyidagicha tarjima qilinadi:

Not mentioning tryst, we spend life in torture of separation,
Perhaps, someday to be kind to us, separation does attempts.
(Vaslidin dam urmayin qilsak firoq ichra basar,
Shoyad o'zin bizga bir kun mehribon etkay firoq.)

Mazkur baytdagi vasl, ya'ni visol so'zi ingliz tiliga "tryst" shaklida tarjima qilinadi. Ingliz tilida bu so'z "pinhona uchrashuv yoki diydor" ma'nolarida keladi. G'azalning butun mohiyatini tarjimaga singdirishning imkonи bo'lmasa-da, tarjimonlik puxtalik bilan amalga oshirilganini ko'rish mumkin.[2]

Alisher Navoiy g'azallarini xorijiy tillarga o'girish orqali ushbu durdonalarni dunyoga tanitayotgan ijodkorlar talaygina. Ana shunday badiiy tarjimonlardan biri ham buyuk shoirning mashhur "Mubtalo bo'ldum sanga" g'azalini ingliz tiliga tarjima qilish orqali badiiy tarjimalar xazinasini boyitgan. G'azaldagi ushbu baytlar quyidagicha tarjima qilingan:

Jamshid's goblet and Hizr's water have become my bestow.
Hey, wine-server, leaving my high rank I've become your slave.[3]
(Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.)

INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

FEBRUARY 7

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

Keltirib o'tilganidek, g'azalning bu baytida ba'zi so'zlar deyarli aslicha qoldirilgan. Boisi "Xizr", "Jam" kabi birliklarning ingliz tilidagi ayni muqobil varianti yo'q. Bu so'zlar tarixiy shaxslarning ismlri bo'lganligi sababli ingliz tiliga ham aslidek o'girilgan.

Baytdagi "soqiyo" so'ziga to'xtalib o'tsak. Bu so'z zamonaviy o'zbek tilida "may quyib beruvchi" ma'nosiga to'g'ri keladi. Baytning inglizcha ko'rinishida ham ushbu so'z "wine-server" holatida kelib, aynan shu ma'noda qo'llanmoqda. Keyingi so'zlarga e'tibor qaratilsa, "tarki joh aylab" birikmasi "leaving my high rank" ("yuqori mansabimni tark etib") tarzida inglizchaga o'girilgan bo'lib, mutolaa qilajak kitobxon uchun tushunaflti tarzda taqdim etilgan.

Navoiy qalamiga mansub "Ey nasimi subh" deb boshlauvchi g'azal ham ayni shu tarjimon tomonidan ingliz tiliga o'girilgan bo'lib, baytlardagi so'zlar va birikmalar asl ma'nosini saqlagan holda tushunarli tarzda ifodalab berilgan:

Hey dawn's breeze, of my state to my soul's beloved, tell,
With hyacinth curls, rosy faced, cypress figured love, tell. [4]
(Ey nasimi subh, ahvolim diloramimg'a ayt.
Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandomimg'a ayt.)

Baytda "nasimi subh" so'zi "tong shabbodasi" ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, u "dawn's breeze" shaklida ingliz tiliga o'girilgan. Keyingi qatordagi "zulfi sunbul" birikmasi "hyacinth curls" holatida tarjima qilingan. Ma'lumki, "zulf" so'zi "ayollarining ikki chakkasidan tushirib qo'yilgan soch tutami, jamalagi" [5] ma'nosini anglatadi. Tarjimon ushbu birikma uchun ingliz tilidagi aynan shu ma'noda qo'llanuvchi so'zlarni qo'llab, baytning ma'nosini yo'qotilmasligini ta'minlagan. Bundan tashqari, ga'zalda radif bo'lib kelgan "ayt" so'zi tarjima shaklida ham qatorning so'ngida kelib, ohangdorlikni yuzaga keltirgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, hozirgi kunda tarjimonlar tomonidan badiiy adabiyot namunalari o'zga tillarga o'zining asl ma'nolarini yo'qotmagan hamda har bir kitobxon mutolaa qilgan vaqtda tushunarli bo'ladijan holatda tarjima qilib kelinmoqda. Ammo ta'kidlab o'tilganidek, ga'zalning asl namunalarida keltirilgan ba'zi so'zlarning xorijiy tillarda ayni muqobil shakli bo'limganligi bois bir qancha muammo hamda kamchiliklar ham kelib chiqishi tabiiy hol. Shu boisdan, tarjima qilingan har qanday namunalar ham mushtariylarga taqdim etilmasdan, ularni mutaxassislar tomonidan tahrir etilishiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda, Zatan, mumtoz adabiyotimizning durdonalaridan bahramand bo'lishni istagan har kim xorijiy tillarda ham ularning tub ma'nolarini anglab yeta olsin.

Foydalilanigan adabiyotlar (references):

1. Fazliddinova S. Alisher Navoiy asarlarining tarjimalari tarixi. -T.: Miasto Przyszlosci, 2022. – betlar 10-13
2. Kolliyeva G. Jahonga sochilgan durdonalar. -T.: Yangi O'zbekiston, 2023
3. Fozilov E. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. -T.: Fan, 1983
4. Fozilov E. Alisher Navoiy g'azallari tarjimasiga oid ayrim mulohazalar. -T.: Fan, 1983
5. Xolbekova B. Ma'nolar xazinasidan. -T.: Mashhur press, 2020. – betlar 10-11
6. Xolbekova B. Ma'nolar xazinasidan. -T.: Mashhur press, 2020. – betlar 18-19
7. O'zME. Birinchi jild. -T.: Toshkent, 2000. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Zulf>